

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
222 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari.....	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами.....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jaroyonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в россию.	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan.....	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari	200
Kaxharov Ulug'bek Xalmatovich	
Восстановление геологических сигналов с использованием кубических базисных сплайнов.....	204
Гофуржонов Мухаммадали, Гофуржонова Маржона	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy jihatlari	210
Madaminov Bekzod Allayarovich	
Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy siyosatning o'zaro ta'siri: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili.....	215
Irgashev Anvar Farxodovich	



MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA MOLIYAVIY SIYOSATNING O'ZARO TA'SIRI: O'ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA TAHLILI

Irgashev Anvar Farxodovich

Tashkent international university

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik va davlat moliyaviy siyosatining o'zaro ta'siri nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. O'zbekistonda so'nggi yillarda qabul qilingan islohotlar, jumladan moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish konsepsiyasi, "Tashabbusli budjet" amaliyoti va aholi moliyaviy inklyuziyasini oshirishga qaratilgan choralar xalqaro tajribalar bilan qiyosiy o'rganildi. OECD, XVJ va Jahon banki ma'lumotlari asosida mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy savodxonlik darajasi hamda uning iqtisodiy siyosatga ta'siri statistik jihatdan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik; moliyaviy siyosat; moliyaviy inklyuziya; soliq siyosati; tashabbusli budjet; moliyaviy ta'lim; kapital bozori; inflyatsiya kutishlari; moliyaviy barqarorlik; iqtisodiy o'sish; moliyaviy shaffoflik.

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of the interrelation between financial literacy and public financial policy. The reforms implemented in Uzbekistan in recent years are examined, including the concept of developing the financial services market, the practice of the "Participatory Budget," and measures aimed at enhancing the financial inclusion of the population, in comparison with international experience. Based on OECD, IMF, and World Bank data, a statistical analysis of financial literacy levels across countries and their impact on the effectiveness of economic policy is presented.

Keywords: financial literacy; financial policy; financial inclusion; tax policy; participatory budget; financial education; capital market; inflation expectations; financial stability; economic growth; financial transparency.

Аннотация: В данной статье теоретически и практически проанализировано взаимное влияние финансовой грамотности и государственной финансовой политики. Рассмотрены реформы, проведённые в Узбекистане в последние годы, в том числе концепция развития рынка финансовых услуг, практика «Инициативного бюджета» и меры по повышению финансовой инклюзии населения, в сравнении с международным опытом. На основе данных ОЭСР, МВФ и Всемирного банка проведён статистический анализ уровня финансовой грамотности в различных странах и его влияния на эффективность экономической политики.

Ключевые слова: финансовая грамотность; финансовая политика; финансовая инклюзия; налоговая политика; инициативный бюджет; финансовое образование; рынок капитала; инфляционные ожидания; финансовая стабильность; экономический рост; финансовая прозрачность.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik masalasi davlat moliyaviy siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Jamiyat a'zolarining moliyaviy jarayonlarni qay darajada anglashlari, o'z moliyaviy qarorlarini ongli qabul qilishlari va xatarlarni baholay olishlari nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki davlatning umumiy iqtisodiy barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda moliyaviy xizmatlar bozori kengayib bormoqda. Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan moliyaviy inklyuziyani ta'minlash, aholiga moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni o'rgatish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Tashabbusli budjet" amaliyoti doirasida fuqarolarning budjet mablag'lari taqsimotida bevosita ishtirok etishi aholida moliyaviy bilimlarni amaliy jihatdan shakllantirmoqda.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda davlat moliyaviy siyosati samaradorligi yuqori bo'ladi. Masalan, OECDning 2020-yilgi hisobotiga ko'ra, moliyaviy ta'lim milliy strategiyalari joriy qilingan davlatlarda aholi moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari 20–25% yuqoriroq bo'lgan.

Shu bois moliyaviy savodxonlikni oshirish va uni davlat moliyaviy siyosati bilan uyg'unlashtirish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan shu masala O'zbekiston va xorijiy davlatlar misolida tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Atkinson va F. Messy “Measuring Financial Literacy: Results of the OECD” asarida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) rahbarligi ostida faoliyat yuritayotgan Moliyaviy ta’lim bo’yicha xalqaro tarmoq (INFE) tomonidan 14 ta mamlakatda moliyaviy savodxonlik darajasini baholash bo’yicha o’tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili keltirilgan. Tahlil mamlakatlardagi moliyaviy bilimlar, moliyaviy munosabatlar va moliyaviy xulq-atvor mezonlari asosida o’tkazilgan. Tadqiqot natijalari davlatlararo hamda davlatlarning o’zidagi ijtimoiy-demografik ko’rsatkichlar asosida qiyoslangan.¹

Ye.N. Alifanova va Yu.S. Yevlaxovanning “Aholining moliyaviy savodxonlik indikatorlarini ishlab chiqishda metodik yondashuvlarni tahlil qilish” nomli maqolasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan aholining moliyaviy savodxonlik darajasini baholash bo’yicha ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar tizimli ravishda umumlashtirilgan va chuqur tahlil qilingan. Mualliflar moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlashning turli konseptual modellari, baholash indikatorlari va o’lchov mezonlarini ko’rib chiqqan. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda o’tkazilgan moliyaviy savodxonlikni baholash tadqiqotlari natijalari qiyosiy tahlil etilib, xalqaro tajribalarning afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan hamda aholining moliyaviy bilimlarini oshirishga qaratilgan, ularning moliyaviy xulq-atvori va shaxsiy qarashlari asosida kompleks baholash modellarini shakllantirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ilmiy asosda bayon qilingan².

Lusardi, Mitchell va Kurto tomonidan yozilgan maqolada moliyaviy ta’limning ahamiyati alohida ta’kidlangan hamda yoshi katta aholi uchun maxsus moliyaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish zarurligi ilgari surilgan³.

Mualliflar AQSHdagi yoshi katta aholi orasida moliyaviy savodxonlik va moliyaviy tajriba darajasini keng qamrovda tahlil qilgan hamda 50 yoshdan katta respondentlar o’rtasida moliyaviy bilim darajasini o’lchash bo’yicha maxsus so’rovnoma o’tkazgan. Yoshi katta amerikaliklarning katta qismi oddiy moliyaviy tushunchalar — foiz stavkalari, inflyatsiya, tavakkalchilikni baholash, kompaund foiz, diversifikatsiya va inflyatsiya ta’siri kabi sohalarida yetarli bilimga ega emasligi aniqlanib, moliyaviy bilim darajasi past deb topilgan.

Moliyaviy savodxonlikning pastligi noto’g’ri moliyaviy qarorlarga, masalan, qarzni noto’g’ri boshqarish yoki pensiya rejalashtirishda xatolarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlangan va bu holat uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka tahdid solishi mumkinligi aytilgan.

Bundan tashqari, aholining moliyaviy savodxonligini o’rganishda demografik farqlar ham inobatga olingan. Ya’ni, ayollar, kam ta’limli va kam daromadli aholi qatlamlari moliyaviy savodxonlik bo’yicha erkaklar va yuqori ta’limlilarga nisbatan ancha orqada ekanligi qayd etilgan.

Lusardi, Mitchell va Kurto tomonidan olib borilgan tadqiqot xulosalari nafaqat AQSH, balki jahon miqyosidagi ko’plab davlatlar, jumladan O’zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Chunki moliyaviy savodxonlik faqatgina shaxsiy moliyaviy barqarorlikni emas, balki umumiy iqtisodiy tizimning samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ularning fikricha, moliyaviy bilimlarni aniqlash, baholash va ushbu bilimlarga asoslangan amaliy ko’nikmalarni rivojlantirish har bir insonning pensiya, investitsiya, qarz va jamg’arma kabi hayotiy qarorlarini to’g’ri qabul qilishiga yordam beradi. Ayniqsa, yoshi katta aholi uchun moliyaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish demografik muvozanat, ijtimoiy barqarorlik va pensiya tizimining mustahkamligi uchun strategik vazifa hisoblanadi.

Mualliflarning tajribasini O’zbekiston Respublikasi sharoitida tatbiq etish orqali, aholi orasida, xususan nafaqaxo’rlar, ayollar va yoshlar o’rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida maqsadli o’quv kurslari, banklar bilan hamkorlikda amaliy treninglar va ommaviy axborot vositalari orqali targ’ibot ishlarini kengaytirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qiyosiy tahlil, statistik tahlil va iqtisodiy modellashtirish usullari qo’llanilgan. Manbalar sifatida O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, Markaziy bank ma’lumotlari, OECD, IMF va World Bank hisobotlaridan foydalanilgan. Jadval va diagrammalar orqali 2020–2024-yillar statistik ko’rsatkichlari tahlil qilingan.

1 Atkinson A. and F. Messy. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD // International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study, OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. 2012. № 15. OECD Publishing. URL: <http://dx.doi.org/10.1787/5k9csfs90fr4-en>

2 Alifanova Ye.N., Yevlaxova Yu.S. Analiz metodicheskix podxodov k razrabotke indikatorov finansovoy gramotnosti naseleniya // Finansy i kredit, 2018, № 43 (775), s. 2542–2560

3 Lusardi, Mitchell & Curto Financial Literacy and Financial Sophistication among Older Americans // Journal of Pension Economics and Finance. 2010. 9(3), 313–328.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasi so'nggi yillarda davlat moliyaviy siyosati bilan uyg'un ravishda oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yildan joriy etilgan "Tashabbusli budjet" amaliyoti aholi ishtirokini ta'minlash orqali budjet mablag'larining taqsimlanishida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirdi. 2023–2024-yillar davomida taxminan 6 trillion so'm fuqarolar tanlagan loyihalarga yo'naltirilib, bu aholining moliyaviy bilimlarini amaliyotda mustahkamlashga xizmat qildi.

2022-yilda qabul qilingan "Moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish va aholining moliyaviy inklyuziyasini oshirish konsepsiyasi" asosida milliy moliyaviy savodxonlik strategiyasini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Markaziy bankning Finlit.uz portali orqali aholiga onlayn kurslar, maslahat xizmatlari va o'quv materiallari taqdim etilmoqda. Buning natijasida aholi moliyaviy xizmatlardan kengroq foydalana boshladi va savodxonlik darajasi oshib bordi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlasak, Nyu-York shahrida 2001-yilda Office of Financial Empowerment (OFE) tashkil etilgan bo'lib, u moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan eng yirik shahar dasturlaridan biri hisoblanadi. OFE aholi uchun Financial Empowerment Centers ochdi, ular orqali shahar aholisi (ayniqsa, kam ta'minlangan qatlam) moliyaviy maslahat, qarzlardan chiqish rejasi, budjet tuzish va kredit bal-larini yaxshilash bo'yicha bepul xizmatlar olish imkoniga ega bo'ldi. Tadqiqotlarga ko'ra, Nyu-Yorkda ushbu dasturlar orqali 100 mingdan ortiq shaxs moliyaviy bilimlarini oshirgan.

Londonda moliyaviy savodxonlik dasturlari asosan Money and Pensions Service (MaPS) hamda London Money Advice Service orqali amalga oshiriladi. Ular maktablarda moliyaviy ta'limni joriy etish, yoshlar uchun moliya boshqaruvi kurslarini tashkil etish hamda keksalar uchun pensiya rejalashtirish bo'yicha treninglar o'tkazadilar. 2018-yilda London shahrining Kensington tumanidagi pilot loyihada 15 ming maktab o'quvchisi moliyaviy savodxonlik dasturidan o'tgan.

Tokioda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha Japanese Financial Services Agency (FSA) va Bank of Japan hamkorlikda maxsus dasturlar ishlab chiqqan. Shahar maktablarida "Money Week" tadbirlari o'tkazilib, o'quvchilarga shaxsiy budjet yuritish, kredit va depozit tushunchalari amaliyotda o'rgatiladi. Shuningdek, Tokio universitetida "Financial Literacy Research Center" faoliyat yuritadi, u yoshlar va tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlik kurslarini tashkil etadi.

Berlinda moliyaviy savodxonlik masalalari Deutsche Bundesbank va Stiftung Warentest tashkiloti tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. 2016-yildan buyon "Schulbank" ("Maktab banki") tashabbusi amalga oshirilmoqda. Uning doirasida shahar maktablarida bolalarga amaliy moliyaviy bilimlar (bank hisobini ochish, jamg'arma yuritish, soliq tushunchalari) o'rgatilmoqda. Berlinning Mitte tumanida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, dasturda qatnashgan o'quvchilarning 78 foizi moliyaviy qarorlarni ongli qabul qilish ko'nikmasini shakllantirgan.

Singapurdagi moliyaviy savodxonlik siyosati butun mamlakatdagi kabi poytaxt shahrida ham yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. MoneySense National Financial Education Programme 2003-yildan beri amal qilib kelmoqda. Singapur shahrida aholi uchun bepul onlayn kurslar, moliyaviy kalkulyatorlar va shaxsiy moliyani rejalashtirish dasturlari ishga tushirilgan. Ayniqsa, shahardagi kichik va o'rta biznes egalari uchun soliq rejalashtirish va investitsiya bo'yicha muntazam seminarlar o'tkaziladi.

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi moliyaviy savodxonlik darajasi jahon ko'rsatkichlariga yaqinlashib bormoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillarda dunyoda moliyaviy savodxonlik darajasi o'rtacha 4 foizga oshgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 11 foizga o'sgan (1-jadval).

1-jadval. 2020–2024-yillarda moliyaviy savodxonlik darajasi (%)

Yil	O'zbekiston (%)	Dunyo o'rtacha (%)	Yevropa (%)	Osiyo (%)
2020	21	36	52	27
2022	26	38	54	29
2024	32	40	56	33

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasi sezilarli o'sish sur'atini namoyon etdi. Agar 2020-yilda aholi moliyaviy bilimga ega bo'lish darajasi 21 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 26 foizga, 2024-yilda esa 32 foizga yetdi. Demak, to'rt yil ichida umumiy o'sish 11 foiz punktni tashkil qildi. Bu holat mamlakatda moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, aholi moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish va moliyaviy ta'limni kuchaytirishga qaratilgan davlat islohotlarining samarasi hisoblanadi.

Dunyo o'rtacha ko'rsatkichlari bilan qiyoslaganda, O'zbekistondagi o'sish sur'ati ancha yuqori. Jahon miqyosida moliyaviy savodxonlik 2020-yilda 36 foizdan 2024-yilda 40 foizgacha, ya'ni 4 foiz punktga oshgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 11 foiz punktga o'sgan. Bu esa mamlakatda moliyaviy savodxonlik yo'nalishida amalga oshirilgan siyosatlarining jahon o'sish sur'atlaridan qariyb uch barobar samaraliroq ekanini ko'rsatadi.

Yevropa davlatlarida moliyaviy savodxonlik darajasi 2020-yilda 52 foizdan 2024-yilda 56 foizgacha oshib, yuqori darajada ustuvorligini saqlab qolmoqda. Osiyo mamlakatlarida esa bu ko'rsatkich 27 foizdan 33 foizga yetgan. O'zbekiston bu yo'nalishda Osiyo ko'rsatkichlariga yaqinlashib kelmoqda: agar 2020-yilda O'zbekiston ko'rsatkichi Osiyodan 6 foiz punkt past bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib farq atigi 1 foiz punktni tashkil etdi.

Shuningdek, jadvaldagi ma'lumotlar moliyaviy savodxonlikning o'sishi davlat moliyaviy siyosatining samaradorligini kuchaytirayotganini, mamlakatda ijobiy dinamika shakllanib borayotganini va moliyaviy savodxonlik o'sish sur'ati jahon ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori ekanini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda davlat moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, soliq siyosati tadbirkorlar va kichik biznes subyektlarini moliyaviy hisobot yuritish, rejalashtirish hamda moliyaviy qonunchilikka rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga undamoqda. Turli soliq imtiyozlari va yengilliklardan samarali foydalanish uchun tadbirkorlar moliyaviy bilimlarini kengaytirishga majbur bo'lmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan uy-joy, qishloq xo'jaligi va ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan kreditlar hamda ijtimoiy subsidiyalar bu borada fuqarolarning moliyaviy va huquqiy bilimlarini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Masalan, uy-joy subsidiyalaridan foydalanish uchun aholi kredit shartlari va to'lov mexanizmlarini chuqur tushunib olishi kerak, bu esa ularning moliyaviy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Ochiq budget portallari davlat budgeti daromad va xarajatlari haqidagi ma'lumotlarni aholiga oshkora taqdim etmoqda. Fuqarolar bu jarayonda ishtirok etish orqali budget taqsimoti, tender jarayonlari va xarajatlar samaradorligini baholash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa davlat moliyaviy siyosatining shaffofligini ta'minlab, aholining moliyaviy jarayonlarga qiziqishini kuchaytiradi.

Dunyo amaliyotiga nazar tashlasak, xalqaro tashkilotlar ham moliyaviy savodxonlik va davlat moliyaviy siyosatining uyg'unligini doimiy ravishda ta'kidlab keladi. Masalan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) tadqiqotlarida aholi moliyaviy savodxonligi past bo'lgan mamlakatlarda inflyatsiya kutishlari yuqori ekani qayd etilgan. Bu holat markaziy banklarni keskinroq pul-kredit siyosati yuritishga majbur etadi. Agar aholi moliyaviy axborotni to'g'ri anglay olsa va iqtisodiy jarayonlarni baholash ko'nikmasiga ega bo'lsa, inflyatsiya kutishlari tezroq pasayadi va siyosatning samaradorligi ortadi.

Shuningdek, OECD moliyaviy savodxonlikni uzoq muddatli iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilaydi. Xususan, moliyaviy ta'lim milliy strategiyalari joriy etilgan davlatlarda moliyaviy inklyuziya darajasi yuqori va aholining moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyati kuchliroq bo'lishi aniqlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasi 21 foizdan 32 foizga ko'tarilgan. Davlat moliyaviy siyosati doirasida qabul qilingan islohotlar aholining moliyaviy bilimlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribalarga asoslanib aytish mumkinki, moliyaviy savodxonlik va moliyaviy siyosat o'zaro bir-birini mustahkamlovchi ijobiy siklni yaratadi: moliyaviy savodxon jamiyat → samarali moliyaviy siyosat → yanada savodli jamiyat.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy savodxonlikning oshishi moliyaviy siyosat samaradorligini kuchaytiradi, davlat moliyaviy siyosati esa o'z navbatida aholi moliyaviy bilimlarini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ–60-сон Фармони – Тошкент, 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030 стратегиясини 2023 йилда амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–300-сон Қарори – Тошкент, 2023.
3. Алифанова Е.Н., Евлахова Ю.С. Анализ методических подходов к разработке индикаторов финансовой грамотности населения // Финансы и кредит. – 2018. – № 43 (775). – С. 2542–2560.
4. Atkinson A., Messy F.-A. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/INFE Pilot Study // OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. – 2012. – No. 15. – Paris: OECD Publishing.
5. OECD. Recommendation on Principles and Good Practices for Financial Education and Awareness. – Paris: OECD, 2020. – 36 p.
6. IMF. Financial Literacy, Financial Inclusion, and Expectations: International Monetary Fund Staff Discussion Note. – Washington D.C.: IMF, 2021. – 48 p.
7. World Bank. Enhancing Financial Capability and Inclusion in Emerging Economies: Policy Lessons and Directions. – Washington D.C.: World Bank, 2022. – 112 p.
8. Ваҳабов А.В., Маликов Т. Молиявий саводхонликни ошириш – самарали молиявий сиёсат гарови // Банк ахборотномаси. – 2021. – № 1 (131). – Б. 26–30.
9. Маслакова Д.О. Развитие финансовой грамотности в России: методика оценки и инструменты измерения. –



- Челябинск: Южно-Уральский государственный гуманитарно-педагогический университет, 2021. – 167 с.
10. Салахова Е.А. Формирование цифровой финансовой грамотности студентов вузов: автореферат дис. ... канд. пед. наук. – Челябинск: ЮУГГПУ, 2023. – 23 с.
 11. Муҳаммадова Д. Молиявий инклюзияни ривожлантириш ва аҳоли молиявий саводхонлигини ошириш йўналишлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2022. – № 3. – Б. 112–120.
 12. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистонда аҳоли молиявий хизматлардан фойдаланиши тўғрисида йиллик ҳисобот. – Тошкент: Давстатқўм, 2024. – 54 б.
 13. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Finlit.uz – Financial Literacy Portal: Annual Report 2023. – Tashkent: CBU, 2023. – 72 p.
 14. Swatii Chandak. Financial Planning and Financial Literacy for Women: Dissertation. – Jaipur: Rajasthan University, 2014. – 189 p.
 15. World Economic Forum. Global Financial Literacy Survey 2023. – Geneva: WEF, 2023. – 84 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100